



## NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARIDA ISLOM MIKROMOLIYASINI TASHKIL QILISH ISTIQBOLLARI

*Anvar Tursunov,*

*PhD, O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi*

*Sirtqi ta'lim fakulteti dekani, Email: a.tursunov@bfa.uz*

*ORCID: 0000-0001-9556-4332*

## ESTABLISHMENT OF ISLAMIC MICROFINANCE IN NON-GOVERNMENT NON-PROFIT ORGANIZATIONS

*Anvar Tursunov,*

*PhD., Dean of Extramural education faculty of*

*The Banking and Finance Academy of Uzbekistan*

*Email: a.tursunov@bfa.uz, ORCID: 0000-0001-9556-4332*

**JEL Classification:** E44, G10, G20

**Annotatsiya.** Qadim davrlardan beri Vaqf institutlari jamiyatda kam ta'minlangan oilalarni iqtisodiy va moddiy tomondan ijtimoiy himoya qilib davlatning ma'lum bir funksiyasini bajargan. Vaqf institutlari orqali boyliklar boylar tomonidan aholini yordamga muhtoj qismiga qayta taqsimlangan. Ya'ni boylar boyligini vaqf fondiga ehson shaklda bergan va vaqf fondidan yordamga muhtoj qatlam moliyalashtirilgan. Natijada, boylar va kambag'allar orasidagi kuchli tabaqalanishni oldi olingan. Zamonaviy kapitalistik konsepsiya g'oyalari asosida bugungi kunda boylar yanada boyimoqda kambag'allar esa yanaqa qashshoqlashib ketmoqda. Biz bozor iqtisodiyoti yoki raqamli iqtisodiyot deb ataymizmi farqi yo'q bari bir birini mantiqiy to'ldiruvchi model hisoblanadi. Bu modellar qanday qilib insonni yanada ko'proq boylik ortirishi haqida qayg'uradi. Natijada, butun jamiyat boylıkları bir necha shaxslar va oilalarning qo'lida to'planadi. Rivojlangan mamlakatlarda ijrada yashovchilar soni o'z uyida yashovchilar sonidan bir necha barobar ko'p.

So'ngi 30 yilda islom moliya va bank tizimining rivojlanishi va keng

yoyilishi natijasida an'anaviy moliyaviy xizmatlar o'rnini bosuvchi islomiy moliyaviy xizmatlar taklif qilindi. Bunga yana bitta sabab, mikromoliya tashkilotlarning moliyaviy xizmatlari kredit berib undan foiz olishga asoslanganligi va bu ribo elementini o'z ichiga olganligi sababli ko'pchilik musulmon jamiyatlar tomonidan rad etildi. Ushbu bo'shliqni to'ldirish uchun Islom mikromoliya tashkilotlari vujudga keldi. Oddiy qilib aytganda islomiy mikromoliya tashkiloti bu shariat qoidalari asosida faoliyat ko'rsatadigan muassasa hisoblanadi.

Moziyg'a qaytib ish ko'rish xayrlik, deydilar<sup>1</sup>. Shunga ko'ra mavzuni yaqin o'tgan asrgacha insoniyatga xizmat qilgan, islomiy imperiyalar qulashi va musulmon jamiyatlari zaiflashishi natijasida o'z ahamiyatini yo'qotgan bo'lishiga qaramay bugungi kunda juda katta potensialga ega bo'lgan moliyaviy institut vaqf fondlari va uning zamonaviy modellari hamda vaqf fondi orqali islom mikromoliyasini tashkil qilish haqida tadqiqot o'tkazishni niyat qildik.

<sup>1</sup> Abdulla Qodiriy (Julqunboy), O'tgan kunlar, roman 1925, 1-bet.

**Abstract.** Since ancient times, Waqf institutions have performed a certain function of the state by providing social protection for economically and materially poor families in the society. Through waqf institutions, wealth was redistributed by the rich to the needy part of the population. That is, the rich donated their wealth to the waqf fund, and the needy section was financed from the waqf fund. As a result, the strong stratification between the rich and the poor was avoided. Based on the ideas of the modern capitalist concept, today the rich are getting richer and the poor are getting poorer. It doesn't matter whether we call it market economy or digital economy, it is a model that complements each other logically. These models are concerned with how to make a person more rich. As a result, the wealth of the entire society is concentrated in the hands of a few individuals and families. In developed countries, the number of people living in the office is several times more than the number of people living in their own homes. Microfinance organizations emerged in the 1980s as a result of the growing need for financial institutions to fight poverty. The main goal of microfinance programs is to reduce poverty by providing financial services to the population with low or no income.

In the last 30 years, as a result of the development and wide spread of the Islamic finance and banking system, Islamic financial services have been offered to replace traditional financial services. Another reason for this is that the financial services of microfinance organizations are based on lending and receiving interest from it, and this includes the element of *riba*, which has been rejected by most Muslim societies. Islamic microfinance organizations were created to fill this gap. Simply put, an Islamic microfinance

organization is an institution that operates on the basis of Sharia rules.

It has been said that it is good to go back to history<sup>2</sup>. Accordingly, waqf funds as a financial institution served humanity until the last century and lost its importance as a result of the collapse of Islamic empires and the weakening of Muslim societies, but today has great potential and its modern models. and we intend to conduct a study on the organization of Islamic microfinance through a waqf fund.

**Kalit so'zlar.** *Vaqf fondi, Islomiy Mikromoliya Tashkiloti, ribo, Islomiy moliyaviy xizmatlar, zakot, vaqf, murobaha, musharaka, mudaraba.*

**Keywords.** *Waqf fund, Islamic Microfinance Organization, usury, Islamic financial services, zakat, waqf, murabaha, musharaka, mudaraba.*

**Kirish.** Vaqf so'zi arabchadan olingan bo'lib, lug'aviy jihatdan tutib turmoq, saqlamoq ma'nolarini bildiradi. Istilohda esa vaqf davlat yoki ayrim shaxslar tomonidan diniy ehtiyoj yoki xayriya ishlari uchun ajratilgan mol-mulk tushuniladi. Ya'ni, vaqf qilingan narsa vaqf qiluvchining mulkidan chiqadi va Alloh mulkiga aylanadi. Vaqf qilingan narsadan keladigan foyda vaqf qiluvchi tomonidan belgilangan manzilga (masalan, talabalar, musofirlar, kambag'allarga) sarf qilinadi va savobi vaqf qiluvchiga abadiy bo'ladi, hatto o'limidan keyin ham yetib turadi. Vaqf qilingan narsa sotilmaydi, hadya qilinmaydi, meros bo'lmaydi. Vaqf – o'sha narsani o'zini ushlab turgan holda, foydasini eng go'zal suratda sarflab borishdir.

Butun dunyo bo'ylab qashshoqlik darajasi shiddat bilan oshib bormoqda. Bunga sabab turli xil urushlar, iqtisodiy sanksiyalar, yuqori darajadagi inflatsiya

<sup>2</sup> Abdulla Qodiriy (Julqunboy), "O'tgan kunlar", novel 1925, page 1.

surati rivojlanayotgan va uchunchi dunyo mamlakatlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu omillar bilan bir qatorda moliyaviy xizmatlardan cheklanganlik qashshoqlar sonini oshishiga va qashshoqlikdan chiqib keta olmaslikka olib kelmoqda. Bugungi kunda 827 million inson qashshoqlikka mahkum, bu dunyo aholisining 10% ko'prog'ini tashkil qiladi [12].

Mikromoliya kontseptsiyasini birinchi bo'lib Nobel mukofoti laureati professor Muhammad Yunus 1976-yilda asos solgan. O'sha davrdan hozirgi kungacha ko'pchilik davlatlar tomonidan qabul qilindi, Mikromoliya garovlarsiz qisqa muddatga kredit beradigan va bank xizmatlarini ko'rsatadigan moliyaviy tuzilmadir [12]. Mikromoliya asosiy e'tiborni faol bo'lgan kambag'al aholiga qaratadi. Tashkilot o'z o'zini moliyalashtirish yoki davlatdan ko'mak olish hisobiga faoliyat yuritadi. Asosiy maqsad daromadi kam bo'lgan aholiga turli xil moliyaviy xizmatlarni ko'rsatish orqali qashshoqlikni kamaytirish. Morduch (1999) ta'rifiga ko'ra yaxshi mikromoliya institutlari uchta xususiyatga ega bo'lishi kerak. Birinchisi, maqsadli guruh a'zolarini moliyalashtirishi kerak. Ya'ni tashkilot garovga mol-mulk talab qilmaganligi sababli bir birini kafolatliydi, shunda kreditni qaytarish riski kamayadi. Ikkinchisi, MT faoliyati natijasida berilayotgan kreditni qaytaribgina qolmay balki mijozlarning hayotida sezilarli o'zgarish qilishga sabab bo'lishi kerak. Hech bo'lmaganda barqaror daromad manbaiga ega bo'lishi lozim. Uchinchisi, MT iqtisodiy mustaqil va barqaror o'sishga harakat qilishi kerak.

Fruman va Isern (1996) kuchli mikromoliya institutining yettita asosiy xususiyati ajratib ko'rsatgan. Quyidagi faktorlar tashkilotning iqtisodiy barqaror ekanligi to'g'risida ma'lumot beradi. Bularga: missiya, moliyaviy xizmatlar va ularni yetkazib berish usullari, tashkiliy tuzilma va inson resurslari, ma'muriyat va moliya, boshqaruv axborot tizimi,

institutsional faoliyat davomiyligi hamda moliyaviy barqarorlik kabilar kiradi.

Mikrokorxonalar rivojlanishiga to'siq bo'lib xizmat qiluvchi ko'plab ichki va tashqi omillar mavjud. Bularga biznes qilishga motivatsiya, boshqaruv va texnik ko'nikmalarning yetishmasligi kiradi. Boshqa tomondan, ularning mahsulotlari uchun bozor mavjud bo'lishi kerak. Bozor ko'p jihatdan davlat siyosati, talab va taklif, mahsulotning hayotiy sikli kabi tashqi omillarga tayanadi. Ushbu bosqichdan muvaffaqiyatli o'tgandan so'ng, tadbirkor o'z biznesining foyda va zararini hisoblashi mumkin.

**Material va metod.** Ushbu maqola mavjud ikkilamchi ma'lumotlar ilmiy maqolalar, tadqiqotlar, Islomiy mikromoliya tashkilotlarining website ma'lumotlari asosida yozilgan. Maqolani yozishda guruhlar, taqqoslash, ilmiy abstraksiya usullaridan foydalanilgan.

Islom mikromoliya institutlarining shakllanishi bevosita Islomiy banklarning vujudga kelishi bilan bog'liq. Birinchi islomiy tijorat bank "Dubay Islom banki" 1975 yilda tashkil topdi. Keyingi 10 yillikda yirik Islomiy moliya institutlar Islom Taraqqiyot banki, Quvayt Finance House, Jordan Islom banki va boshqalar o'z faoliyatini boshladi. 1983 yilda Malaysia Berhad Islom banki va shu yilning o'zida Qatar Islom banki tashkil topdi [1]. Quyidagi jadvalda Islom banklarining ochilishidan tortib bugungi kungacha rivojlanishini bosqichlarga bo'ldik.

Bugungi kunda jahon miqyosida 80 ta mamlakat islom moliyasini joriy etgan bo'lib, ushbu davlatlarda 428 ta islom banklari va 350 dan ortiq islomiy darchalar faoliyat ko'rsatmoqda. Islom moliyasi aktivlarining 95% atigi 10 ta mamlakatga to'g'ri keladi. Eron dunyo miqyosidagi ulushning 29 foizini egallab turibdi, undan keyin Saudiya Arabistoni (25%), Malayziya (11%), Birlashgan Arab Amirliklari (8%), Quvayt (6%), Qatar (6%), Turkiya (2,6%), Bangladesh (2,1%), Indoneziya (2%) va Bahrayn (1,8%) tashkil qiladi [4]. Jahonda Islom moliyasi kapitali 3.2 milliard dollarga

yetdi. Jami Islom moliyasi aktivlarining 1% ni Islom mikromoliyasi tashkil qiladi [5].

Islom mikromoliyasi ustav kapitalining shakllanishidan tortib to uni ishlatilishigacha bo'lgan jaroyon ribo, g'arar va maysirdan holi bo'lishi ya'ni shariat qoidalariga qat'iy amal qilishi shart.

Islom mikromoliyasining ustav kapitali quyidagi manbalardan tashkil topadi:

1. Hissadorlarning ulushi orqali vujudga keladi. Bunda musharaka ya'ni sherikchilik asosida tashkil qiladi;

2. Qimmatli qog'ozlar sukuk orqali shakllanadi;

3. Depositlar vadia va mudoraba orqali shakllanadi;

4. Zakot, sadaqa va vaqf mablag'lari hisobidan tashkil topadi.

1. Hissadorlar birlashib mikromoliya tashkilotini tashkil qiladi. Ushbu tashkilot faoliyatidan olingan foyda kelishuvga ko'ra, zarar esa tikilgan mablag'ga ko'ra taqsimlanadi.

2. Islomiy qimmatli qog'oz sukuk sertifikatini chiqarish orqali mablag' shakllantiriladi.

3. Jismoniy va yuridik shaxslardan depostlarni qabul qilish orqali mablag'shakllantiriladi. Bunda, vadia yoki mudoraba shartnomasidan foydalaniladi. Vadia shartnomasidan foydalanilganda islomiy mikromoliya tashkiloti qo'yilgan deposit egalarning mablag'laridan vakil sifatida tasarruf etadi. Mudoraba shartnomasidan foydalanilganda esa islomiy mikromoliya tashkilotiga mablag' kirituvchi jismoniy va yuridik shaxslar yoki islom banki rab ul mol (mablag' egasi) hisoblanadi. Islom mikromoliya tashkiloti esa mudorib ya'ni uni tasarruf etuvchi hisoblanadi.

4. Jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan qaytarilmaslik sharti bilan berilgan mablag'lar va mol-muklar tushuniladi. Ushbu mablag'lar o'ta qashshoqlarni moliyalashtirishda muhim ahamiyatga ega. Islomiy mikromoliya tashkilotini an'anaviy mikromoliya

tashkilotidan ustunligi ham shunda ko'rinadi.

Islom mikromoliya tashkilotining moliyalashtirish shakllari quyidagilardan tashkil topgan:

1. Foyda va zararni bo'lishishga asoslangan mudoraba va mushoraka shartnomasi orqali;

2. Savdo sotiqqa asoslangan murobaha shartnomasi orqali;

3. Ijara berishga asoslangan Ijara shartnomasi orqali;

4. Qarz berishga asoslangan qarz-ul hasan orqali moliyalashtiriladi.

O'rta sharq shimoliy afrika davlatlarida IMT vujudga keldi. Ilk muvoffaqiyatli programma bu Mit Ghamr loyisi edi. Bu Islom bankini vujudga kelishi va keyinchalik islom mikromoliyasini rivojlanishiga asos bo'ldi.

Jabal Al Hoss "Sanadiq" (qishloq banki) IMT Suriyada vujudga keldi. Ushbu loyiha musharaka asosida shakllangan va murobaha asosida moliyalashtiradi. Ya'ni kambag'allar birlashib mablag'larini to'plab IMT tashkil qilgan. Masalan, 10 so'mga aktiv sotib olib foydasini qo'yib 12 so'mga sotadi. Olingan foyda ta'sischi o'rtasida bo'linadi.

Mu'assasat Bait Al-Mal IMT Lebanonda tashkil topgan. Mablag'lar shakllanishi donorlar, turli xil xayriya ishlari orqali amalga oshirilgan. Dastlab faqat Qard ul hasan ko'rinishida moliyalashtirilgan. Keyinchalik foyda va zararni bo'lishish moliyaviy instrumentlaridan ham foydalanishni boshladi. Moliyalashtirish ko'lami kengaydi, mijozlardan to'lovni undirish riski ham oshdi. Tashkilot riskni kamaytirish maqsadida garovlardan foydalanishni yo'lga qo'ydi.

Hodeidah IMT Yamanda tashkil topdi [10]. Model Grameen bank modeliga o'shsh maxsus guruhlardan shakllanadi va bir birini kafolatlaydi. Moliyalashtirida murobaha shartnomasidan foydalanadi.

Markaziy Osiyo mamlakatlarida musulmon aholi soni ko'p bo'lishiga qaramay faqatgina Afg'onistonda FINCA islomiy mikroredit tashkiloti mavjud.

Ushbu tashkilotning ishlash mexanizmi qard ul hasanga asoslangan.

Akhuwat Islamic Microfinance (AIM) 2001 yilda Pokistonda tashkil topgan. Ushbu tashkilotning 400 ta shaharda 800 dan ortiq filiali bor [15]. Dunyodagi eng katta islom mikromoliya tashkiloti hisoblanadi. Akhuwat so'zining ma'nosi birodar degan ma'noni bildiradi. Ushbu termini tanlanishini o'ziga xos tarixi bor. Payg'ambarimiz Muhammad Alayhisalom sahobalari bilan birga makkadan madinaga hijrat (ko'chib o'tganda) qilganda Madinalik Ansorlar (qabila nomi) birodarlarini oziq ovqat, kiyim-kechak, boshpana bilan ta'minlagan. Akhuwatning maqsadi agar hamma insonlar kambag'allarga shunday yondashsa yer yuzida qashshoqlikka barham beriladi. Tashkilotning ustav kapitali hozirgi ijrochi direktori va asoschisi Dr. Amjad Saqib va uning bir necha do'stlarining shaxsiy puliga shakllangan.

Akhuwat avval qard ul hasan ko'rinishida kambag'allarni moliyalashtirgan. Bunda besh kishidan iborat yordam guruhi yoki yakka shaxsga ikki kishini kafilligi bilan foizsiz qarz bergan yoki oilaga er va xotinning o'zaro kafolati asosida qarz bergan. Umuman insonlar kundalik hayotida uchraylgan holatlarga foizsiz muddatli qarz bergan. Ko'pincha insonlarni qashshoqlikka tushib qolishiga sabab, muhtoj vaziyatda kredit olib uni foizini ham to'lay olmay bor budidan ajralishiga olib keladi. Ushbu tashkilot inflyatsiya darajasidan qat'iy nazar foizsiz qarz bergan. Mantiqan, 100 000 sum pul 3 oydan keyin 100 000 sumga teng emas, lekin shunga qaramay Akhuwat misli ko'rilmagan darajada yutuqqa erishdi va dunyoda birinchi raqamli islom mikromoliya tashkilotiga aylandi.

**Natijalar.** Islomiy mikromoliyani kimlar tomonidan taklif qilinishi ko'ra 3 ta guruhga bo'linadi. Birinchisi, norasmiy-ya'ni moliyalashtirish do'stlar, qarindoshlar yoki boshqa yaqin insonlar tomonidan amalga oshiriladi. Odatda oldi berdilar qarz ul hasan ko'rinishida bo'ladi ya'ni foizsiz ma'lum bir vaqtga yordam tariqasida

beriladi. Ikkinchisi, nodavlat notijorat tashkilotlar tomonidan moliyalashtiriladi. Bunga turli xil yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatadigan jamoat fondlarini misol keltirishimiz mumkin. Bu tashkilotlar donor mablag'lari evaziga faoliyat ko'rsatadi, moliyalashtirish ko'lami ham cheklangan bo'ladi. Uchinchisi, rasmiy faoliyat ko'rsatayotgan moliyaviy institutlardir. Bularning ichida eng katta potensial Islom banklari hisoblanadi. Chunki ularda malaka, ko'nikma, tajriba, shariat kengashi, potinsial mijozlar, pul mablag'i, hududlarda filiallari mavjud. Lekin shunga qaramay tizimda Islom mikromoliyasi ulushi kamligicha qolib ketmoqda. Bunga bir qancha sabablarni keltirish mumkin: mikromoliya sohasidan daromad kam keladi, islom banklari an'anaviy banklar bilan raqobatlashayotgan tizim sifatida o'zini daromadli sohalarda faoliyat yuritishga harakat qilmoqda. Keyingisi zakot yig'ish tizimi rivojlanmaganligini keltirish mumkin. Dunyoning biror bir davlatida bu majburiy undirilmaydi, vaholanki bu moli nisob miqdorga yetgan musulmonlar uchun majburiy hisoblanadi. Oxirgi marta Usmoniylar emperiyasi davrida bu ish amalga oshirilgan, zakot yig'ishga maxsus odamlar tayinlangan hamda bu ishni tashkillashtirish va nazorat qilish amirning zimmasida bo'lgan.

Islom mikromoliya tashkilotlari jami Islom moliyasidagi kapitali 1% ligicha qolmoqda. Bunga asosiy sabab investorlar uchun foydani kam ekanligini ko'rsatish mumkin. Shu sababli ushbu tizimni nodavlat notijorat tashkilotlari orqali rivojlantirish lozim. Nodavlat notijorat tashkilotlar sonini oshirish va ularda islom mikromoliyasini tashkil qilish orqali islom mikromoliyasini rivojlantirish lozim.

Har bir mikromoliya tashkiloti moliyaviy mustaqil bo'lishga, o'z faoliyatidan xarajatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Yangi tashkil topgan Islom

mikromoliya tashkiloti (IMT) riski past mahsulotlardan foydalanishga harakat qiladi. Aksincha faoliyatini kengaytirgan

moliyaviy barqarorlikka erishgan tashkilotlar riski mijozlar uchun past bo'lgan xizmatlardan foydalanish lozim.

### 1-jadval

#### Islom mikromoliya xizmatlarining turlarining tavsifi<sup>3</sup>

Moliyaviy xizmat turlari	foydalanilishi	Kapital narxi	Mijoz riski	IMT riski	Izoh
<i>Mudarabah/Musharakah</i>	Asosiy vositalar va uy sotib olish	Juda baland	Past	Juda baland	Boshqaruv va nazorat qilish xarajatlari qimmat, ideal xizmatlar ammo amaliyotda kam ishlatiladi
<i>Ijarah</i>	Asosiy vositalar sotib olish	O'rtacha	Baland	O'rtacha	Boshqaruv va nazorat qilish xarajatlari arzon, shuning uchun ham amaliyotda ko'p qo'llaniladi
<i>Murabahah</i>	Uzoq va qisqa Aktivlar sotib olish	O'rtacha	Baland	O'rtacha	Boshqaruv va nazorat qilish xarajatlari arzon, to'lash tizimi ham oson, shuning sababli, eng ko'p qo'llaniladigan xizmat hisoblanadi.
<i>Qard</i>	Hamma maqsadlarda	Juda past	Juda past	O'rtacha	Asosan ehsan mablag'laridan moliyalashtiriladi va chegaralangan bo'ladi.

<sup>3</sup> Obaidullah, Mohammed, Khan Tariqullah Islamic Microfinance Development: Challenges and Initiatives, handbook – Jeddah, 2008.

<i>Salam</i>	Aylanma mablag'	Baland	Baland	Baland	Ushbu xizmat qishloq xo'jaligida keng qo'llaniladi, ayniqsa fermerlar uchun muhim ahamiyatga ega.
<i>Istisna</i>	Asosiy vositalar sotib olish	Baland	Baland	Baland	Islom moliyasidagi eng moslashuvchan va qulay mahsulot hisoblanadi.

Ushbu jadvalda Islom moliyaviy xizmat turlari, uning mijoz va mikromoliya tashkiloti o'rtasida risklarning taqsimlanishi keltirilgan.

IMT risklarni boshqarishda va sug'urta qilishda kafala (kafil) va daman (garov) dan foydalanadi. Yakka shaxslarni moliyalashtirganda xizmatga to'lovni amalga oshirishda bir biriga kafil qilishdan foydalanadi. Bu esa garovga nisbatan muqobil variant hisoblanadi. Ushbu tizim an'anaviy mikromoliyada ham islom mikromoliyasida ham keng qo'llaniladi. Chunki mikromoliya xizmatlaridan asosan

kambag'allar foydalanadi va ularda odatda garov uchun mol-mulk bo'lmaydi.

Mikromoliyaning asosiy maqsadi kambag'allarga ishlashi va daromad topishiga sharoit yaratishda ko'maklashish ekan. Zamonaviy tilda kambag'alga baliq berma uni tutishni o'rgat degan ibora yuqoridagi hadisdan olingan bo'lsa ajab emas. Bu islom va an'anaviy mikromoliya uchun umumiy holat hisoblanadi. Quyidagi rasmda an'anaviy mikromoliya va islom mikromoliyasi o'rtasidagi farqni ko'rishamiz.

**2-jadval**

**An'anaviy mikromoliya va islom mikromoliyasi o'rtasidagi farq<sup>4</sup>**

Xizmat turlari	An'anaviy mikromoliya	Islom mikromoliyasi
Passivlari	Ta'sisichilar ulushi, deposit mablag'lari	Ta'sisichilar ulushi, deposit mablag'lari, zakot va vaqf mablag'lari
Aktivlari	Asosiy vositalar, Foizli kreditlar	Asosiy vositalar, islomiy moliyaviy instrumentlar

<sup>4</sup> Ines Ben Abdelkader, Islamic vs Conventional Microfinance Institutions: Performance analysis in MENA countries, International Journal of Business and Social Research (IJBSR), Volume -3, No.-5, May, 2013

Moliyalshtirish shakli	Pul (Naqd yoki naqdsiz) ko'rinishida	Aktiv yoki Tovar ko'rinishida
Maqsadli guruhlar	Ayollar	Oila
Xodimlarni rag'batlantirish	Pul ko'rinishida	Pul ko'rinishida va diniy
Qarzni qaytarolmay qolganda	Guruh a'zolariga bosim beriladi	Oila a'zolariga bosim beriladi
Ijtimoiy rivojlanish dasturi	Dunyoviy, xulq-atvor, axloqiy va ijtimoiy rivojlanish	Diniy xulq-atvorni o'z ichiga oladi

Ushbu jadvalni tahlil qiladigan bo'lsak Islom mikromoliyasi passivlarini shakllanishi, aktivlari, moliyalashtirish shakli, maqsadli guruhlar va boshqa yo'nalishlarda farq qiladi. Aytib o'tish lozimki, mazkur jadvalda Islom va an'anaviy mikromoliya tashkilotlari yonma yon ishlaydigan davlatlardagi faoliyat taqqoslangan.

1. Depozit mablag'laridagi farq. MT (Mikromoliya tashkiloti) mijozlar depozitlarini ma'lum bir muddatga qo'yadi va qat'iy belgilangan foiz ko'rinishida daromad oladi. MT deposit mablag'larini xohlagan yo'nalishda ishlatishi va foyda olishi mumkin. Agar foyda olmasa yoki zarar ko'rsa ham deposit egalariga belgilangan stavka bo'yicha foiz to'lashi shart. IMT (Islom mikromoliya tashkiloti) esa mijozlar depozitlarini ma'lum bir muddatga mudoraba shartnomasi asosida qo'yadi va foydadan ulush oladi. IMT deposit mablag'larini shariat ruxsat bergan sohalarida tasarruf qiladi. Agar IMT foyda ko'rsa, depozitorga foydadan ulush beradi, foyda ko'rmasa hech narsa bermaydi, agar zarar ko'rsa zararni bo'lishadi. Demak, tadbirkor foyda yoki

zarar ko'rsa ham 3 ga bo'linayapti tadbirkor, IMT va depositor. AMT foyda 3 ga bo'linadi, tadbirkor, MT va depositor, zararni esa faqat tadbirkor to'laydi.

2. Aktivlari. AMT (an'anaviy mikromoliya tashkilot) foizli kreditlar hisblanadi. IMT islomiy moliyaviy instrumentlar hisoblanadi. Bularga Musharaka, mudaraba va boshqa shakllarni keltirish mumkin. IMT da qat'iy belgilangan foiz stavkani o'rniga foyda va zararni bo'lishishga asoslangan sherikchilik yotadi.

Moliyalshtirish shakli. AMT pulni mijozni hisob raqamiga yoki plastik kartasiga ko'chirib beradi va belgilangan foiz oladi. IMT esa pulga tovar sifatida qaralmaydi. Iqtisodiyotni rivojlantirishda pulga bo'lgan munosabat islom iqtisodiyotida tubdan farq qiladi.

Islomiy mikromoliya tashkilotlarini keng qamrovli joriy etilishi mamlakat uchun quyidagi imkoniyatlarni beradi:

1. aholi va biznes vakillari ixtiyorida bo'lgan bo'sh pul mablag'larining iqtisodiyot rivojlanishida maksimal ishtirokini ta'minlash; (Agar deposit olish imkoniyati berilsa)



2. mamlakatda kam daromadli aholi uchun moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish va diversifikatsiyalash;

3. ko'plab yangi ish o'rinlari yaratish;

4. aholining moliyaviy savodxonligini oshirish orqali, moliya bozoridagi faolligini ko'tarish;

5. Islom moliya xizmatlarini ko'rsatuvchi yangi mikromoliya industriyasini tashkil qilish orqali mamlakatda infratuzilmani muvofiqlashtirish va yangilash;

6. kambag'allikka qarshi kurashish davlat dasturini amalga oshirishga hissa qo'shish;

7. yangi yo'nalishda kadrlar tayyorlash dasturini yaratish.

**Munozara.** Islom mikromoliyasi shariat qoidalari asosida xizmat ko'rsatib tadbirkor bilan foyda va zararni bo'lishadi. Savol tug'uladi nega O'zbekistonga Islom mikromoliyasi kerak?

❖ Islom mikromoliya aholisining ko'p qismi musulmon bo'lgan aholidan ko'proq mablag' jalb qilish, ya'ni depozit yig'ish imkoniyatiga ega. Aynan shu omil mamlakatimizda aholining bo'sh pul mablag'ini jalb qilish va uni ishlab chiqarishga investitsiya qilish mumkin. Bundan, tadbirkor, bank va mijoz birdek manfaatdor bo'ladi. Shuningdek, naqd pulning aholi qo'lida qolib ketishini oldini oladi va iqtisodiyotda aylanishini ta'minlaydi. Bu esa, o'z navbatida inflatsiyani kamaytirishga xizmat qiladi. Bizda nobank tashkilotlarga deposit olish huquqi berilmagan, ushbu huquqni qayta ko'rib chiqish kerak. "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida"gi qonun (O'RQ-765-son, 20.04.2022-y.) qabul qilindi.[1] Ushbu qonunni imzolanishi sohani rivojlantirish uchun tashalgan katta qadamlardan hisoblanadi. Ushbu qonun asosida nodavlat notijorat tashkilotlari Islomiy mikromoliya

tashkil qilgan holda Islomiy bank xizmatlarini ko'rsatishi mumkin.

❖ Tijorat banklari tomonidan mikroqarzlarni ajratilishi imkoniyatining yetarli darajada mavjud emasligi mikroqarzlarni olish darajasini oshirishni ta'minlamayapti, mikrocredit tashkilotlar va lombardlarning xizmatlari bo'yicha yuqori foiz stavkalari aksariyat holatlarda iste'molchilarning moliyaviy holati yomonlashishiga olib kelmoqda. Islom mikromoliyasi foizli kreditlardan farqli o'laroq foydani yoki zararni taqsimlash orqali moliyalashtirish iste'molchilarga keng imkoniyatlar yaratadi. Ya'ni tadbirkor bilan mikromoliya tashkiloti sherikchilik asosida faoliyat ko'rsatadi. Agar biznes foyda ko'rsa kelishuvga muvofiq, agar zarar ko'rsa biznesga kiritgan ulushi miqdorida zararni o'z zimmasiga oladi.

❖ Foyda va zararni sheriklar o'rtasida bo'linishi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi kam daromadga yoki umuman daromadga bo'lmagan shaxslarga qo'shimcha imkoniyatlar taqdim etadi. Bu jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi uchun ham muhim rol o'ynaydi va qashshoqlikni kamaytirishga xizmat qiladi.

Jamiyatning nafaqat kambag'al odamlari, balki an'anaviy mikromoliya kabi qashshoqlik chegarasidan yuqori bo'lgan odamlar orasida ham umid yaratish uchun muhim va samarali usullardan biri Islom mikromoliyasidir[11].

Islom mikromoliyasi moliyaviy xizmatlarni shariat prinsiplari asosida taqdim etadi. An'anaviy mikromoliyadan ustunligi ribo va g'ararni taqiqlanganligi, shuningdek o'ta qashshoq aholiga qaytarmaslik sharti bilan beriladigan, zakot, sadaqah kabi xizmatlarni o'z ichiga olganligi bilan tavsiflanadi. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Islom mikromoliyasi an'anaviyga nisbatan qashshoqlikni kamaytirishda samaraliroq

ekanligi hamda ijtimoiy ta'minotni oshirishda maqbulroq ekanligi aniqlandi.

**Xulosa.** Islomiy mikromoliya tashkiloti tashkil topish va shakllanish bosqichini bosib o'tdi hamda qashshoqlikka qarshi kurashishda an'anaviy tashkilotlarga nisbatan samarali ekanligi isbotlandi. Islomiy mikromoliya tashkilotlarini joriy etilishi birinchi navbatda qashshoqlikka qarshi kurashish va ish o'rinlarini yaratishga xizmat qiladi. Islomiy mikromoliya

muassasasini nodavlat notijorat tashkilotlarida tashkil qilish O'zbekistonning porloq kelajagi uchun muhim omil, shuningdek, Islom darchasi va Islom banklari tashkil topishi uchun poydevor hamda rivojlanish istiqboli bo'ladi, natijada o'z madaniyatida islomning chuqur ildizlarini aks ettirgan mamlakat ushbu imkoniyatdan xalq farovonligi hamda mamlakatning barqaror rivojlanishida to'laonli foydalanishga erishadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdul Rahim Abdul Rahman, Islamic Microfinance: A Missing Component in Islamic Banking, Kyoto Bulletin of Islamic Area Studies, 1-2 (2007), pp. 38-53
2. Nobank kredit tashkilotlari va mikromolialashtirish faoliyati to'g'risida"gi qonun (O'RQ-765-son, 20.04.2022-y.)
3. Susan Johnson ( 2009). "Microfinance is dead! Long live microfinance. Critical reflections on two decades of microfinance policy and practice". Published in Centre for Development Studies, University of Bath, UK.
4. Islamic Finance: Just For Muslim-Majority Nations? Copyright © 2021 Global Finance Magazine.
5. Islamic Finance Outlook 2022 Edition. spglobal.com/ratings
6. Book, Introduction to Islamic Microfinance, Mohammed Obaidullah 2008
7. The four-model classification is based on John D Conroy, "The Challenges of Microfinancing in South-East Asia", Financing Southeast Asia's Economic Development, Institute of Southeast Asian Studies, Singapore, 2003.
8. Seibel, Hans Dieter, Wahyu Dwi Agung. 2006. "Islamic Microfinance in Indonesia." Working Paper 2006 (2).Development Research Center, University of Cologne. <http://hdl.handle.net/10419/23656>.
9. Tursunov, A. S. (2022). Islomiy mikromolialashtirishning kambag'allikni qisqartirishda tutgan o'gni. Пандемиядан кейинги иқтисодийёт: рисклар, муаммолар, ечимлар» мавзuidaги ўтказиладиган халқаро илмий-амалий конференцияси мақолалар тўплами (2022 йил 30 март). Т.:ҲТТТ, 2022
10. Obaidullah, Mohammed, Khan Tariqullah Islamic Microfinance Development: Challenges and Initiatives, handbook – Jeddah, 2008.
11. Ledgerwood, Joanna and Victoria White. 2006. Transforming Microfinance Institutions: Providing Full Financial Services to the Poor. The World Bank, Washington DC.
12. Brandsma, Judith, and Deena Burjorjee. 2004. Microfinance in the Arab States: Building Inclusive Financial Sectors. New York: United Nations Capital Development Fund.
13. ADB (Asian Development Bank). 2000. Finance for the Poor: Microfinance Development Strategy. Mandaluyong City: Asian Development Bank.



14. Halima Begum, A.S.A. Ferdous Alam, Md Aslam Mia, Faruk Bhuiyan, Ahmad Bashawir Abdul Ghani, (2018) "Development of Islamic microfinance: a sustainable poverty reduction approach", Journal of Economic and Administrative Sciences, <https://doi.org/10.1108/JEAS-01-2018-0007>.
15. Khan, A. A. (2008). *Islamic Microfinance; Theory, Policy and Practice*. Birmingham, UK: Islamic Relief Worldwide.
16. [www.worldbank.org](http://www.worldbank.org)
17. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
18. [www.isdb.org](http://www.isdb.org)
19. <https://akhuwatuk.org/>